

O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDAGI RASMIY HUJJATLAR SINONIMLARINING LINGVISTIK TAHLILI: TARJIMADA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI

Akabirov Matlubxon Isroiljon o'g'li

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22021661>

Globalashuv sharoitida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining kengayishi rasmiy hujjatlarni tarjima qilish zaruratini oshirmoqda. Xitoy va o'zbek tillaridagi ish yuritish hujjatlarida sinonimlarning qo'llanish xususiyatlarini qiyosiy o'rganish tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur tezisda ikki tildagi rasmiy hujjatlar sinonimlarining leksik-semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi, tarjimada uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Xitoy tilidagi rasmiy uslub terminologik jihatdan yuqori darajada standartlashtirilgan bo'lib, bir-biriga yaqin ma'nodagi birliklarning har biri aniq funksional vazifani bajaradi. Masalan, 执行 (zhíxíng) – "ijro etmoq", 实施 (shíshī) – "amalga oshirmoq", 落实 (luòshí) – "amalda ta'minlamoq" fe'llari umumiy holda "amalga oshirmoq" ma'nosini ifodalasa-da, ularning semantik chegaralari turlicha: 执行 buyruq, qaror yoki qonunning ijrosini bildiradi; 实施 dastur, siyosat yoki loyihaning amaliyotga tatbiq etilishini anglatadi; 落实 esa qabul qilingan vazifa va chora-tadbirlarning to'liq bajarilganligini ifodalaydi. Xuddi shuningdek, 发布 (fābù) – "e'lon qilmoq, tarqatmoq", 公布 (gōngbù) – "ommaga ma'lum qilmoq", 颁布 (bānbù) – "rasman kuchga kiritmoq" sinonimlari ham o'ziga xos semantik va huquqiy farqlarga ega. O'zbek tilida esa ushbu tushunchalar ko'pincha "amalga oshirmoq", "ijro etmoq", "tatbiq etmoq", "joriy etmoq", "e'lon qilmoq" kabi umumiy ekvivalentlar orqali ifodalanadi, bu esa tarjimada semantik noaniqlik va huquqiy mazmunning to'liq aks etmasligiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotda CCL, Sinica Corpus va BCC elektron korpuslari hamda o'zbek tilidagi rasmiy hujjatlar matnlari asosida komponent tahlil, kontekstual tahlil va qiyosiy tahlil metodlari qo'llaniladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xitoy tilida terminlar qat'iy normativ tizim asosida qo'llansa, o'zbek tilida ayrim sinonimlarning qo'llanish imkoniyatlari nisbatan kengroqdir. Xitoy tilidagi sinonimlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'noga emas, balki terminning huquqiy maqomi, hujjat turi, kollokatsion mosligi va kommunikativ vazifasiga ham e'tibor qaratish zarur. Aks holda sinonimlarning noto'g'ri tanlanishi hujjat mazmunining o'zgarishiga yoki huquqiy noaniqlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xitoy va o'zbek tillaridagi rasmiy sinonimlar umumiy funksional maqsadi bir xil bo'lishiga qaramay, ularning semantik differensiallashuv darajasi, terminologik standartlashuvi va kollokatsion tizimi o'zaro farqlanadi. Tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta'minlash uchun sinonimlarning semantik tarkibi, huquqiy maqomi, uslubiy xususiyatlari va kollokatsion imkoniyatlarini kompleks hisobga olish lozim. Kelgusida xitoy va o'zbek tillaridagi rasmiy terminlarning ikki tilli elektron lug'ati hamda terminologik ma'lumotlar bazasini yaratish, tarjimonlar va xitoy tili mutaxassislari uchun rasmiy uslubga oid sinonimlarning kollokatsion xususiyatlarini aks ettiruvchi metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. 汉语近义词辨析. 北京: 北京语言大学出版社, 2011.
2. 1700对近义词语用法对比. 北京: 北京语言大学出版社, 2009.
3. 吕叔湘. 现代汉语八百词 (增订本). 北京: 商务印书馆, 1999.
4. 陆俭明. 现代汉语语法研究教程. 北京: 北京大学出版社, 2005.
5. 沈家煊. 认知与汉语语法研究. 北京: 商务印书馆, 2006.
6. 党政机关公文处理工作条例. 北京: 中共中央办公厅, 国务院办公厅, 2012.
7. 荀恩东, 饶高琦, 肖晓悦, 臧娇娇. 大数据背景下BCC语料库的研制 // 语料库语言学. 2016. T. 3. № 1. C. 93-118.
8. Cruse D.A. Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
9. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, 1974.
11. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1978.
12. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimlarning uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. Toshkent, 1992.
13. Mahmudov N. O'zbek tilida so'z ma'nosi va uning semantik tuzilishi // O'zbek tili va adabiyoti. 1983. № 4.
14. Mustafayeva S.T. Xitoycha-o'zbekcha tilshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014.
15. Sultonova L.A. Xitoy tili leksikologiyasi. Toshkent, 2015.